Mavrolov Ravshan Nematjonovich	
Barqaror rivojlanish va korxonalarda barqarorlikni ta'minlash zaruriyati.....	780
Yakubova Dilfuza	
Yashil iqtisodiyot sharoitlarida barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalar va ekologik menejmentning o'rni	785
Dilmurodov Abbas Anvar o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasi faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish	788
Tuxtamishev Shodimurod Qurbonboyevich	
Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish.....	795
Axmedov G'ofurjon G'ulomjonovich	
Turizm sohasini ekonometrik modellashtirishda qo'llaniladigan ekonometrik usullar va amaliy imkoniyatlar	801
Shukurov Ikrom Abdurashitovich	
Sanoat tarmoqlarida investitsiyalar strukturasining iqtisodiy samaradorligi va innovatsiyalarni rag'batlantirish.....	807
Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi	
Mintaqa ziyorat turizmi samaradorligini oshirishda ekonometrik modellardan foydalanish.....	812
O'rinova Durdona Botir qizi	
Kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni pest (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, texnologik omillar) tahlili.....	816
Israilov Rustam Ibragimovich	
Qazib olish sanoati korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishda muammolar va salbiy omillar: tahlil va zamonaviy yondashuvlar	825
Abduraxmanov Davron Burxanjonovich	
O'zbekistonning milliy merosi boyliklaridan turizmga foydalanish yo'llari	830
Samarov Xonqul Qahhorovich	
Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investision resurslarning mutanosib taqsimlanishi: samaradorlik va ustuvor yo'nalishlar	835
Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li	
Iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy o'sishni indikativ baholash metodologiyasi.....	841
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	



Bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish istiqbollari.....	847
Pardayev To'liqin Nasirovich, Farxodov Farrux Furqatovich, Nomozov Abduvohid bdurazzoq o'g'li	
Механизмы устойчивого управления малым и средним бизнесом в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта.....	852
Зокирова Фарангиз Тулкиновна	
Yashil bank xizmatlari va uni joriy etish bilan bog'liq muammolar.....	862
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Barqaror qishloq xo'jaligi ta'minot zanjirlarida transport tizimlarini optimallashtirish.....	867
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
Moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni.....	874
Pardayev Jamshid Muzaffarovich	
Mintaqa sanoatida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va infratuzilmasini tashkil etish.....	881
Salayev Jasurbek Komilovich	
Surxondaryo viloyatida 2010–2024-yillardagi yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy statistik tahlili.....	888
Ismoilov Davronbek Ilxomjon o'g'li	
Yashil obligatsiyalar va barqaror moliyalashtirishning davlat qarzi siyosatiga ta'siri.....	893
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Модели Альтмана и Таффлера как инструмент диагностики финансовой устойчивости предприятий.....	897
Утемуратова Бибихон Даниловна	
Individual tadbirkorlik va mustaqil bandlik asosida olinadigan daromadlarni soliqqa tortishning fundamental asoslari.....	903
Yakubov San'abek Ravshanbekovich	
China's trade relations with Central Asia: an empirical analysis based on the trade gravity model.....	912
Ye Maoqing	
O'zbekistonda turizm sohasida smart texnologiyalar joriy etishning holati va yo'nalishlari.....	920
Qutbiddinov Shamsiddin Kamoliddin o'g'li	
Application of modern information systems in the assessment of the technical condition of the equipment of electrical energy networks.....	924
Sobirov Muzaffar Azatovich	
Стратегическое управление экономическим потенциалом Узбекистана.....	932
Садуллаева Муслимахон Саидамировна	
Auditda raqamli texnologiyalarni qo'llash tarixi va istiqbollari.....	936
Muydinov Erkin Djамалdinovich	
Bank majburiyatlari va aktivlarining vaqtinchalik nomutanosibliklari riskini kamaytirish.....	940
Ibrohimov D.M.	
Priority directions and legal bases of improving of the tax system of the Republic of Uzbekistan.....	945
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik va bandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.....	950
Karshiyev Keldiyor Eshpulatovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish uchun ijtimoiy himoya va mehnat bozoriga kirishni kuchaytirish.....	954
Mamashokirova Iroda Samar qizi	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitining o'zaro bog'liqligini nazariy asoslari.....	958
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Региональный туристский кластер – как инструмент повышения эффективности экономики региона.....	965
Юсупова Нигина Тажиевна	
Bank tizimida esg omillarining samaradorligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari.....	971
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li	



Теоретические взгляды на цифровую экономику, цифровую трансформацию	977
Шарипова Шахло Истамовна	
Qoraqalpog'iston Respublikasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari va strategik yo'nalishlari	982
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
Mintaqalar transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari	986
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
Loyiha boshqaruvida amaliy misollar orqali jinoyat holatlarini tahlili	994
To'yqulov Abbosjon Ali o'g'li	
Advancing tourist safety management in Uzbekistan's growing tourism industry: a systems theory approach	999
Laylo Primova	
Qoraqalpog'iston Respublikasida maishiy xizmatlar sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar	1006
Yerejepova Bibisara Abibullayevna	
Основные проблемы и вызовы в создании умных городов	1010
Хакбердиева Нозима Кахрамоновна	
Qurilish obyekti smeta narxlarini aniqlashdagi muammolar va ularning oqibatlarini	1015
Asadova Maftuna Sa'dullaevna	
Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish	1020
Ismailov Temur Pulatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi: statistik ko'rsatkichlar va ekonometrik modellarning tahlili	1024
Sharipov R.S.	
Sanoat infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi va tartibga solish mexanizmlari	1030
Rasulov Jamshid Karimovich	
To'qimachilik sanoati korxonalarida eksport salohiyatini rivojlantirishda boshqaruv jarayonlarini o'ziga hos xususiyatlari	1036
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tomonidan so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar moliyaviy tahlili	1040
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanishni boshqarish tizimini takomillashtirish	1045
Smetov Murat Inyatovich	
Sanoat investitsion salohiyatini amalga oshirish mexanizmining mahalliy va xorijiy tajribalarini qiyosiy tahlili	1050
Bayniyazova Malika Polatovna	
Korxonalarda raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning bozor raqobatbardoshligiga ta'siri	1056
Mamadjanova Tuyg'unoy Aхмаджановна	
Руководство страховыми операциями: стратегический подход	1062
Тулаев Дилшод Юсуфович	
Sanoatni rivojlantirishda innovatsion boshqarishni takomillashtirish strategiyasi	1068
Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli chakana xizmatlarni takomillashtirish yo'llari	1073
Axmedov G'ofurjon Gulomjonovich	
Maktab o'quv dasturlariga turizm va mehmondo'stlik tarmog'ini integratsiyalashning soha rivojidadagi ahamiyati	1078
Nilufar Raxmonova Yorqinovna	
Namangan viloyatidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari salohiyati	1083
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	



Инновационные подходы к обеспечению экологической и экономической устойчивости в области энергосбережения и эффективного управления водными ресурсами	1088
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич, Ешмирзаев Содиқжон Еркинбой угли, Кохарова Далира Рустам кизи	
Kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni boshqarish orqali raqobatbardoshlikni oshirish	1095
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Зеленая экономика и устойчивое развитие: экономический взгляд.....	1100
Акбаралиева Сугдиёна Улугбек кизи, Ахмедиева А.Т.	
Raqamli iqtisodiyot orqali investitsiyalarni jalb qilish va O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari.....	1105
Norpo'latov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
Инновационные факторы развития аграрного производства региона.....	1109
Сирожиiddинов Икромиддин Кутбиддинович	
Анализ развития зеленой экономики в глобальном контексте и в Республике Узбекистан.....	1114
Хусаинов Равшан Рахимович	
Marketing jarayonlarida emotsional intellektning roli va uning neyromarketing strategiyalari samaradorligiga ta'siri	1120
Pulatova Nigoraxon Nurullaevna	



MARKETING JARAYONLARIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING ROLI VA UNING NEYROMARKETING STRATEGIYALARI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Pulatova Nigoraxon Nurullaevna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Mediamenejment va mediamarketing kafedrası o'qituvchisi,
Email: pulatova24@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada marketingda emotsional intellektning ahamiyati va uning neyromarketing strategiyalari samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Natijalar emotsional intellekt iste'molchi hissiyotlarini chuqurroq anglash va uzoq muddatli brend sodiqligini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, neyromarketing, iste'molchi xulqi, brend sodiqligi, marketing strategiyasi.

Abstract: The article highlights the importance of emotional intelligence in marketing and its impact on the effectiveness of neuromarketing strategies. The findings demonstrate that emotional intelligence plays a crucial role in understanding consumer emotions and fostering long-term brand loyalty.

Key words: emotional intelligence, neuromarketing, consumer behavior, brand loyalty, marketing strategy.

Аннотация: В статье раскрывается значение эмоционального интеллекта в маркетинге и его влияние на эффективность нейромаркетинговых стратегий. Результаты показывают, что эмоциональный интеллект играет ключевую роль в более глубоком понимании эмоций потребителей и формировании долгосрочной лояльности к бренду.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, нейромаркетинг, поведение потребителей, лояльность к бренду, маркетинговая стратегия.

KIRISH

So'nggi yillarda marketing nazariyasi va amaliyotida inson omilining, xususan, emotsional intellektning o'zni sezilarli darajada ortib bormoqda. Raqobat kuchayib borayotgan sharoitda kompaniyalar nafaqat mahsulot va xizmatlarning texnik sifatiga, balki iste'molchilarning hissiy ehtiyojlarini qondirishga ham katta e'tibor qaratmoqda. Chunki iste'molchi qarorlarining aksariyati ratsional hisob-kitoblardan ko'ra, emotsional va psixologik omillar ta'sirida shakllanadi. Shu jihatdan qaraganda, marketing mutaxassislarning emotsional intellekti kompaniya strategiyalarining muvaffaqiyatida hal qiluvchi determinant sifatida qaralmoqda.

Emotsional intellekt insonning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalarning emotsiyalarini tushunib ularga mos ravishda harakat qilish qobiliyatini anglatadi. Marketing sohasida bu ko'nikma iste'molchi xulq-atvorini chuqurroq idrok etish, brendga ijobiy munosabatni shakllantirish va uzoq muddatli mijoz sodiqligini ta'minlash imkonini beradi. Ayniqsa, neyromarketing strategiyalarida iste'molchilarning miyadagi reaksiyalari, hissiy sezgilari va ongsiz qaror qabul qilish jarayonlarini o'rganish jarayonida emotsional intellekt yuqori bo'lgan mutaxassislarning ustunligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Neyromarketing o'z navbatida iqtisodiyot, psixologiya, nevrologiya va texnologiyalar kesishgan nuqtada shakllangan fanlararo yondashuv hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi iste'molchilarning yashirin ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos strategiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu jarayonda emotsional intellekt marketologlarga neyromarketing natijalarini to'g'ri talqin qilish, iste'molchi hissiyotlarini aniqlash va strategik qarorlarni puxta asoslash imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida ushbu masalaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Mamlakatda raqobat muhiti tobora kuchayib, ichki bozor bilan birga tashqi bozorlarda ham iste'molchilarning talab va istaklari murakkablashib bormoqda. Bu esa marketing mutaxassislardan faqat texnik bilim va ko'nikmalar emas, balki



iste'molchi hissiy ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini ham talab etadi. Shu sababli, marketologlarning emotsional intellekti neyromarketing strategiyalarining samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Emotsional intellekt va neyromarketing strategiyalari o'rtasidagi bog'liqlik so'nggi yillarda xalqaro ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda. Mayer va Salovey tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada emotsional intellekt insonlarning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalarning hissiy holatini tushunish qobiliyati sifatida ta'riflanib, shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi omil sifatida qaraladi [1]. Ushbu yondashuv marketing faoliyatida, ayniqsa iste'molchilarning hissiy qarorlarini tushunishda dolzarb hisoblanadi.

Goleman emotsional intellektni korporativ boshqaruv va rahbarlikda muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida baholaydi [2]. Unga ko'ra, emotsional intellekti yuqori marketologlar nafaqat o'z jamoasida samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yadi, balki iste'molchilarning psixologik ehtiyojlarini chuqurroq anglab, ularga mos marketing strategiyalarini ishlab chiqadi.

Neyromarketing yo'nalishida Plassmann va hamkorlarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, iste'molchilarning brendlarga bo'lgan munosabatlari ularning miya faoliyatidagi mukofot markazlari orqali namoyon bo'ladi [3]. Bu esa emotsional intellekti yuqori bo'lgan marketologlarga hissiy signal va kognitiv jarayonlarni yanada samarali talqin qilish imkonini beradi. Ariely va Berns ham neyrobiologik yondashuvlar orqali reklama samaradorligi va iste'molchi qarorlaridagi hissiy motivlarning rolini asoslab berishgan [4].

Shuningdek, Lee va hamkorlarining tadqiqotlari neyromarketingning axloqiy va metodologik jihatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, iste'molchi emotsiyalarini tahlil qilishda professional yondashuv va emotsional intellektning yuqori darajasi talab etilishini ko'rsatadi [5]. Bu marketing jarayonlarida nafaqat texnik usullar, balki insoniy qadriyatlarni inobatga olish zarurligini anglatadi.

Osiyo mamlakatlari tajribasida Reardon va Timmer qishloq xo'jaligi marketingida iste'molchilarning hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olish orqali eksport samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatgan [6]. Bu yondashuv shuni anglatadiki, emotsional intellekt nafaqat shahar-markaziy iste'molchilarga, balki qishloq hududlardagi bozorlarga yo'naltirilgan strategiyalarda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yevropa davlatlari misolida Vecchiato va boshqalar neyroimij va elektroensefalografiya (EEG) asosidagi tadqiqotlarida iste'molchilarning reklama roliklariga bergan hissiy javoblarini o'rganib, reklama samaradorligining emotsional intellekt bilan uyg'unlashtirilgan strategiyalar orqali ortishini asoslagan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Emotsional intellekt va neyromarketing o'zaro bog'liq ikki tushuncha bo'lib, ularning uyg'unligi marketing samaradorligini belgilovchi muhim determinant sifatida qaralmoqda. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, iste'molchi qarorlarining aksariyati ratsional hisob-kitoblarga emas, balki hissiy omillarga asoslanadi. Shu sababli, emotsional intellekti rivojlangan marketologlar iste'molchilarning yashirin ehtiyojlarini chuqurroq anglab, ularga mos strategiyalarni ishlab chiqishda ustunlikka ega bo'ladi.

1-jadval. Emotsional intellektning neyromarketing strategiyalariga ta'sir yo'nalishlari

Asosiy elementlar	Emotsional intellekt roli	Kutilayotgan samaralar
Iste'molchi hissiyotlarini aniqlash	Marketolog hissiy signal va emotsional javoblarni sezadi va ularni strategiyaga moslashtiradi	Brendga ishonch va iste'molchi sodiqligi kuchayadi
Qaror qabul qilish jarayonini boshqarish	Qaror ortidagi psixologik motivlarni tushunib, ong osti reaksiyalariga mos yondashuv ishlab chiqiladi	Iste'molchi qarorlari tezlashadi va reklama samaradorligi ortadi
Mijoz bilan muloqot	Muloqot jarayonida empatiya va ishonch kuchayadi	Uzoq muddatli mijoz aloqalari shakllanadi
Brend imijini shakllantirish	Hissiy jihatdan uyg'un brend strategiyalari yaratiladi	Bozorda raqobatbardoshlik mustahkamlanadi

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi



Ushbu jadval shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt neyromarketing strategiyalarini insoniylashtirish, iste'molchining hissiy ehtiyojlariga yaqinlashtirish va brendga ijobiy munosabatni kuchaytirishda asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida iste'molchi qarorlari ko'pincha ijtimoiy qadriyatlar, an'ana va madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgani uchun emotsional intellekt strategiyalarni milliy mentalitetga moslashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2-jadval. Xorijiy va mahalliy tajribada emotsional intellektning qo'llanilishi

Tajriba	Yondashuv	Natija
AQSh va Yevropa kompaniyalari	EEG va fMRI texnologiyalar yordamida reklama roliklariga iste'molchilarning emotsional reaksiyalarini tahlil qilish	Reklama samaradorligi sezilarli darajada oshirilgan, iste'molchi xotirasida brend uzoq muddat saqlangan
Osiyo mamlakatlari (Janubiy Koreya, Yaponiya)	Emotsional intellekt treninglari orqali marketologlarning iste'molchi hissiyotlarini aniqlash ko'nikmalarini oshirish	Brend va iste'molchi o'rtasida uzoq muddatli hissiy aloqalar shakllangan
O'zbekiston	Mahalliy bozorda iste'molchilarning madaniy qadriyatlarini hisobga olish, reklama va PR kampaniyalarida milliylikka urg'u berish	Mahsulot va xizmatlarga nisbatan ishonch oshib, brendga sodiqlik kuchaygan

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, neyromarketing texnologiyalarini emotsional intellekt bilan birlashtirish reklama va marketing strategiyalarining samaradorligini oshiradi. O'zbekiston tajribasida esa texnologik imkoniyatlar cheklangan bo'lsa-da, emotsional intellekt orqali iste'molchilar bilan bevosita hissiy aloqa o'rnatish samarali natija bermoqda. Demak, kelajakda xalqaro ilg'or texnologiyalarni joriy etish bilan birga, mahalliy emotsional omillarni hisobga olish mamlakat marketing strategiyalarini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

TAKLIFLAR VA XULOSA

Yuqorida olib borilgan nazariy tahlillar va empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt marketing faoliyatining markaziy elementiga aylanmoqda. Xususan, iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonlari ko'proq hissiy va psixologik omillar ta'sirida shakllanishi, neyromarketing strategiyalarining samaradorligi esa marketologlarning ushbu omillarni anglash darajasiga bevosita bog'liq ekanini tasdiqladi. Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Marketing sohasi mutaxassislari uchun emotsional intellekt ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida maxsus o'quv dasturlari va treninglarni yo'lga qo'yish zarur. Bunda xalqaro tajribadan, xususan AQSh va Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilayotgan "emotional leadership" va "neuro-training" metodologiyalaridan foydalanish mumkin. Bu marketing xodimlarining iste'molchilar bilan hissiy aloqani mustahkamlashiga xizmat qiladi.

EEG, fMRI, eye-tracking kabi ilg'or texnologiyalarni qo'llash bilan birga, O'zbekiston sharoitida resurslar cheklanganligini hisobga olib, soddalashtirilgan uslublardan – onlayn so'rovlar, psixometrik testlar va yuz ifodalarini tahlil qilish dasturlaridan samarali foydalanish mumkin. Bu texnologiyalar iste'molchi hissiyotlarini o'lchashda yuqori darajadagi aniqlik beradi va marketing qarorlarini ilmiy asoslashga yordam beradi.

O'zbekiston jamiyatida iste'molchilar qarorlariga oilaviy qadriyatlar, milliy an'analar va ijtimoiy norma kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois neyromarketing strategiyalarida mahalliy madaniyatga mos kontent va ramzlardan foydalanish, reklama mazmunida milliy identitetni aks ettirish emotsional intellektni amalda qo'llash samaradorligini oshiradi.

Emotsional intellektni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan neyromarketing strategiyalari iste'molchilarda uzoq muddatli brend sodiqligini shakllantiradi. Bu esa kompaniyalarning barqaror moliyaviy natijalarga erishishiga, investorlar uchun esa risklar darajasini kamaytirib, kutilayotgan foydani oshirishga imkon yaratadi.

Marketing jarayonlarida emotsional intellektidan noto'g'ri foydalanish xavfi mavjud: masalan, iste'molchilar hissiyotlaridan manipulyativ maqsadlarda foydalanish ularning brendga bo'lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Shu bois davlat darajasida tartibga soluvchi institutlar marketingda axloqiy mezonlarni belgilashi, kompaniyalar esa ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslanishi lozim.

Universitetlar, ilmiy tadqiqot markazlari va biznes sektor o'rtasida hamkorlikni kengaytirish, qo'shma tadqiqotlar olib borish orqali marketingda neyrofani yutuqlarini joriy etish mumkin. Bu nafaqat ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishga, balki milliy innovatsion rivojlanishga ham hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt marketing jarayonlarida inson omilini chuqurroq o'rganishga imkon yaratib, neyromarketing strategiyalarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xorijiy



tajriba shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt va neyromarketing uyg'unligi iste'molchilar bilan mustahkam hissiy aloqalarni shakllantirishda eng muhim omillardan biridir. O'zbekiston sharoitida esa bu jarayon nafaqat marketing samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy barqarorlik, iste'molchilarning moliyaviy savodxonligi va milliy brendlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, emotsional intellekt va neyromarketing integratsiyasi milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va innovatsion rivojlanishida strategik yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mayer J., Salovey P. (1997). *Emotional Intelligence: What it is and why it matters*. Imagination, Cognition and Personality.
2. Goleman D. (2006). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
3. Plassmann H., Ramsøy T., Milosavljevic M. (2012). Branding the brain: A critical review and outlook. *Journal of Consumer Psychology*.
4. Ariely D., Berns G. (2010). *Neuromarketing: the hope and hype of neuroimaging in business*. *Nature Reviews Neuroscience*.
5. Lee N., Broderick A., Chamberlain L. (2007). What is 'neuromarketing'? A discussion and agenda for future research. *International Journal of Psychophysiology*.
6. Reardon T., Timmer C.P. (2012). *The Economics of the Food System Revolution*. *Annual Review of Resource Economics*.
7. Vecchiato G., Astolfi L., Fallani F. et al. (2010). Changes in brain activity during the observation of TV commercials by using EEG, GSR and HR measurements. *Brain Topography*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>